MUSIQIY TA'LIMNING MILLIY CHOLG'ULARI YO'NALISHI BO'YICHA O'QITISHDA KREATIV YONDASHUV

Odiljon Nazarov,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist,
O'zDK professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy cholg'ularda o'qitishning quyi va o'rta bo'g'inida milliy cholg'ularda o'qitishda kreativ yondashuv haqida so'z yuritilgan. Unda zamonaviy musiqiy ta'limda mavjud ayrim jihatlar tahlil qilinib, bir qancha takliflar bayon etilgan.

Аннотация: Аннотация: В статье рассматривается креативный подход к обучению игре на национальных инструментах в начальном и среднем звене обучения. В ней анализируются некоторые аспекты современного музыкального образования и даётся ряд предложений.

Annotation: This article discusses the creative approach to teaching national instruments at the lower and middle levels of education. It analyzes some aspects of modern music education and presents a number of proposals.

Kalit so'zlar: musiqiy ta'lim, takomillashtirish, cholg'u ijrochiligi, milliy cholg'ular, kreativ, dastur, pedagogik texnologiya

Ключевые слова: музыкальное образование, совершенствование, инструментальное исполнительство, народные инструменты, креативность, образовательная программа, педагогические технологии.

Key words: musical education, improvement, instrument performance, national instruments, creative, program, pedagogical technology

Bugun mamlakatimizda hukumatimiz tomonidan uzluksiz musiqiy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish maqsadida bir qancha qaror va hujjatlar qabul qilinib katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Uzluksiz musiqiy ta'lim tizimining quyi va o'rta bosqichlarida yoshlarga musiqaning barcha yo'nalishlarida sifatli ta'lim berib kelinmoqda. [1]

Bilamizki, musiqiy ta'limda, ayniqsa cholg'u ijrochiligi yo'nalishi (milliy cholg'ular, fortepiano, skripka, damli cholg'ular) bo'yicha dars mashg'ulotlari yakka tarzda olib boriladi. Sababi, cholg'ularga o'rgatish amaliy mashg'ulotlar shaklida olib borilishidir, albatta. Bugungi kunda musiqiy ta'lim

belgilangan dastur va talablar asosida olib borilsa-da, cholg‘ularga o‘rgatishda darslar har bir mutaxassisning muayyan cholg‘uda o‘qitish bo‘yicha shaxsiy tajribasiga asoslangan uslubi asosida an’anaviy ko‘rinishda amalga oshirib borilishi ko‘pchilikka ma’lum. Shunday bo‘lsa-da, yakka dars mashg‘ulotlarida ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib borayotgan fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalana olish, hamda hayotning barcha jabhalariga shiddat bilan kirib kelayotgan axborotlar oqimini qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash va o‘quvchilarga yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. [2]

Aynan shunday dolzarb vazifalarni bajarishda musiqa maktabi o‘qituvchisining dars jarayonlariga kreativ yondashuvi muhim omillardan biri hisoblanadi. Xususan, milliy cholg‘ularda o‘qitish, BMSMlarda bu bo‘limlarga o‘quvchilarni ko‘proq jalb etish, so‘nggi yillarda yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan o‘rta maktab o‘quvchilari ham milliy cholg‘ularda chalish ko‘nikmasiga ega bo‘lishini ta’minlash kabi ishlarni kreativ yondashuv asosida amalga oshirish ko‘zlangan maqsadga erishishda samarali vositalardan biridir.

Ha, bugun shiddatli hayot oqimida har bir sohada o‘z ishiga aynan yangi g‘oyalarni amalga tatbiq etish, zamon talabiga javob beradigan kreativlik, yangi fikr uslubi asosida yondashishgina muvaffaqiyat garovi ekanligi hammaga ma’lum bo‘lib bormoqda. Xo‘sh, kreativlik so‘zi o‘zi qanday tushuncha, biz musiqiy ta’limning quyi bosqichida milliy cholg‘ular o‘qituvchilari o‘z ish faoliyatimizda buni qanday amalga oshirayapmiz? Yana qanday yangicha ish uslubini qo‘llasak ta’lim sifati yanada yaxshilanishi mumkin?

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, “kreativlik” – so‘zi inglizcha “sreate” so‘zidan olingan bo‘lib, “yaratish” degan ma’noni bildiradi. Kreativlik bu noodatiy fikr yuritish, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishdir. Kreativlik yangilikni ixtiro qilish, an’anaviylikdan voz kechib, odatiy fikr yuritishdan tashqariga chiqishni bildiradi.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi uning shaxsiy qobiliyatlari va kasbiy faoliyatini sifatli, samarali tashkil etishga zamin yaratadi. O‘qitishning didaktik ta’minotini kreativ yondashuv asosida tashkil etish dars jarayoni samaradorligini kafolatlaydi. Har bir milliy cholg‘ularda dars beradigan o‘qituvchi o‘z ishini yuqori tashkilotlar tomonidan va o‘quv muassasasi tasdiqlangan o‘quv dasturlari va talablari asosida olib boradi. Bunda muayyan talablar asosida belgilangan asarlarni o‘rgatish, imtihonlar va konsertlarni o‘tkazish kabi asosiy mezonlarga asoslanadi. Lekin hamma o‘qituvchida ham natija bir xilda ijobiy bo‘lmaydi, balki, bir oz pastroq salbiy natijalar ham bo‘lishi mumkin.

Shunday ekan, natijalar imkon qadar yuqori bo‘lishi uchun ayrim takliflarni o‘rtaga tashlash mumkin:

1) o‘quvchi bilan yaqindan muloqot qilish, ya’ni faqatgina uning oilaviy ahvolidan xabardor bo‘libgina qolmay, uning qiziqishlarini o‘rganish,

maktabdagi fanlarga munosabatini o‘rganish, unga qiziqarli bo‘lgan fan yoki mavzularda suhbatlashib turish;

Ya'ni, bugungi kunda musiqa maktablari milliy cholg‘ular yo‘nalishida aksariyat hollarda ota-onasining xohishi bilan o‘zlari xohlamagan holda yoki o‘zi xohlasa-da, musiqiy qobiliyatlari uncha yuqori bo‘lmagan o‘quvchilar uchrab turadi. Cholg‘uda chalishni o‘rgatib borish bilan birga, o‘quvchilarning musiqa maktabiga munosabatini yaxshilash uchun ular bilan erkin, ochiq muomala qilish, ular qiziqadigan mavzularda suhbatlashish, masalan, darsga kelgan kuni o‘rta maktabida o‘zi yoqtirgan fanda o‘tilgan mavzu bo‘yicha fikr almashish, ayrim kichik jihatlarni birgalikda tahlil qilish, mavzuning mohiyatini tushuntirish mumkin. Shuningdek, musiqa maktabida uning tafakkuri rivojlanishi, dunyoqarashi kengayishi, kelgusida boshqa sohada mutaxassis bo‘lsa ham bu yerda olayotgan bilimlari unga ijobiy samara berishi, uning madaniyatli, bilimlari keng inson bo‘lishini tushuntirish va kichik bo‘lsa-da erishayotgan yutuqlarini rag‘batlantirib borish.

2) **o‘qituvchi har bir asarni o‘zi ijro etib ko‘rsatib berishi, o‘z ustida muntazam ishlab borishi, yangi badiiy adabiyotlar, sohaga oid adabiyotlar, ilg‘or o‘qituvchilar tajribasini o‘rganib o‘z ish faoliyatiga tatbiq etish;**

Sir emaski, ayrim o‘qituvchilar kollej yoki Oliy ta'limda o‘rgangan sanoqli asarlar bilan cheklangan. Ish faoliyatida esa ko‘plab asarlarni o‘quvchilarga o‘rgatishga to‘g‘ri keladi. Shunday ekan, o‘qituvchi bu yangi asarlarni o‘zi avval o‘rgangan bo‘lishi talab etiladi. Amaliyotda esa o‘qituvchi o‘quvchisiga bergan asarni o‘zi ijro eta olmaydi va umumiy ko‘rsatmalar bilan cheklanadi. Va natijada o‘quvchi asarni bilganicha o‘rganadi va asar to‘liq o‘zlashtirilmaydi. Eng muhimi o‘quvchida ayrim ijro ko‘nikmalari noto‘g‘ri shakllanadi. O‘qituvchilar soha bo‘yicha adabiyotlar, xususan, boshqa cholg‘ular bo‘yicha chiqarilayotgan adabiyotlar bilan tanish emasligi, o‘zi musiqa maktabida o‘rgangan asarlarni o‘rgatib kelayotganligi ko‘p uchraydi. Boshqa bo‘lim o‘qituvchilari yoki boshqa cholg‘udan dars beradigan yetakchi ustozlar darslarini kuzatmaslik, ulardan o‘rganmaslik, tajribalarni umumlashtirmaslik kabi jihatlar o‘qituvchining kreativ fikrlashiga to‘sqinlik qiladigan asosiy omillardan hisoblanadi.

3) malaka oshirish kurslarida mutaxassislik bo‘yicha zamon talablariga mos keladigan va aniq uslubiyotga asoslangan belgilangan miqdordagi mashg‘ulotlarni yo‘lga qo‘yish;

Afsuski, musiqa maktablar o‘qituvchilari bir oy davomida malaka oshirish kurslarida ta'lim olishlariga qaramay mutaxassisliklari bo‘yicha hech qanday yangilik olmay qaytib ketayotganliklari, faqatgina sertifikat olish bilan cheklanayotganliklari achinarli.

4) asarlar ijrosida applikatura talablarini to‘g‘ri qo‘llash;

O‘qituvchining kreativ fikrlashi applikaturani to‘g‘ri qo‘llashida ham ijobiy samara beradi. Sababi, applikaturaga uncha yaxshi e'tibor qaratmaslik natijasida o‘quvchining ijro holati va barmoqlar noto‘g‘ri shakllanib

qolishi mumkin. Bunda o‘qituvchi aniq maqsadni ko‘zlagan holda har bir o‘quvchi uchun alohida applikatura qo‘llashi yaxshi natijaga olib keladi. O‘quvchida mavjud bo‘lgan qandaydir kamchilikni to‘g‘rilash, biron barmoqni rivojlantirish, ijro tezligini oshirish uchun yoki milliy nola qochirimlarni o‘zlashtirish uchun mos bo‘lgan applikaturani tanlash o‘qituvchidan kreativ yondashuvni talab etadi.

5) dars jarayonlariga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish;

Ta'lim-tarbiya jarayoniga, xususan, musiqiy ta'limga ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammolarni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

Texnologiya tushunchasi qariyb bir asrdan buyon ta'lim sohasida keng qo‘llanib kelinmoqda. Ushbu yo‘nalishda dunyo miqyosida yetuk olimlar izlanishlar olib borganlar. O‘zbekistonda N.Sayidahmedov, M.Ochilov, N.Azizxo‘jaeva, R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, R.Mavlonova, X.Abdullaev, M.Mahkamova kabi o‘nlab taniqli olimlar ushbu sohada olib borgan ishlarida pedagogik texnologiyaga o‘z qarashlarini bildirib o‘tganlar. V.P.Bespalkoning O‘zbekistonlik shogirdi N.Sayidahmedovning fikricha “Pedagogik texnologiya – bu o‘qituvchi tomonidan o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchilarga ta'sir ko‘rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir”. [3] Nufuzli YuNESKO tashkiloti ma'qullagan ta'rif bo‘yicha “Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning ta'sirini inobatga olib, o‘qitish va bilim o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash va qo‘llashning tizimli metodidir”. [3] Ta'kidlanganidek, zamonaviy ta'limda o‘qitish tizimida axborot va pedagogik texnologiyalarning amaliyotda qo‘llanishi muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Aslida har bir o‘qituvchi o‘z faoliyatida pedagogik texnologiyalarining u yoki bu jihatlarini qo‘llab keladilar. Masalan, kompyuter texnologiyalaridan, ya'ni, turli ovozli va video yozuvlardan internet tarmoqlari orqali foydalanish, o‘z ijrolari hamda, boshqa ijrolarni yozib olib qayta tinglab tahlil qilish kabi usullardan foydalanadilar. Audio yozuvdan farqli o‘laroq video orqali o‘rganishda o‘quvchi bevosita ijrochining qo‘l yoki barmoq harakatlari, applikatura va artikulyatsiyani qo‘llash usullari, hatto nafas olish holatlarigacha ko‘rish orqali o‘zlashtirishi mumkin.

Musiqiy nazariy bilimlarni o‘zlashtirish va ularni mustahkamlash maqsadida pedagogik texnologiyalarning ayrim metodlaridan yakka darslar mavzularini o‘zlashtirishda mustaqil ish uchun yozma topshiriq sifatida foydalanish mumkin. Masalan, musiqa maktabida mashg‘ulotlarning ilk bosqichlarida o‘quvchiga o‘qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan va turli mavzularga moslashtirilgan “Nima uchun”, “BBB” jadvalining oldindan tayyorlangan bo‘sh nusxasini to‘ldirib kelishni uyga vazifa sifatida berish mumkin.

Bilaman	Bilmayman	Bilishni xohlayman
1. Bu cholg'uni oldin ushlab ko'rganman 2.	1. Qanday chalishni 2.	1. Ko'p kuylarni chalishni 2.

7) o'quv dars turlariga kreativ yondashish;

O'qituvchining ta'lim jarayoniga kreativ yondashishi ayniqsa o'quv dasturlarini tanlay olishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bugun musiqiy ta'limning barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan salbiy jihatlardan biri – bu biron bir cholg'u uchun yozilgan asarni boshqa cholg'uda umuman ijro etilmasligidir. Agar BMSMlar uchun tasdiqlab berilgan asarlarga nazar tashlansa ularning ko'plari juda eski bo'lib, ulardan jahon va yevropa kompozitorlari asarlariga ko'proq o'rin berilganligiga, yoki faqat shu cholg'u uchun yozilgan asarlar ekanligi ma'lum bo'ladi. Agar o'qituvchi bu masalaga kreativ yondashsa boshqa cholg'ular uchun yozilgan asarlarni o'z cholg'usiga moslashtirib, hech bo'lmaganda transport qilib, o'zlari ularga ijro shtrixlarini qo'yib o'quvchiga o'rgatishi mumkin. Yoki oddiy xalq kuylarini o'zlari notalashtirib o'quv dasturlarini boyitib borishlari mumkin. Albatta poytaxtdan yoki kimdir tomonidan kitob chiqarilishini kutib o'tirish shart emas. Agar har bir maktabdan hech bo'lmaganda bitta o'qituvchi shunday ishlarni amalga oshirsa bir yilda 2-3 ta asar qo'shilsa ham 15-20 yilda dasturlar qanchalik kengayishini tasavvur qilish qiyin emas.

Ayniqsa, shuni ta'kidlash joizki, milliy cholg'ularda yevropa kompozitorlar asarlarini o'rgatish tufayli aksariyat hollarda o'quvchilar o'z milliy ohanglaridan uzoqlashib qolishi, milliy ijrochilik ko'nikmalarini o'zlashtirolmasligi, oxir oqibat musiqiy qobiliyatlarini yetarli darajada rivojlanmay qolishiga sabab bo'lmoqda.

O'qituvchilar cholg'ular uchun milliy asarlar yetarli emasligini bot-bot takrorlab o'z e'tirozlarini bildiradilar. Shu o'rinda aniq misollar bilan fikrimizni tushuntirishga harakat qilamiz. Misol uchun bastakorlar tomonidan qashqar rubob uchun bir qancha maxsus yaratilgan asarlar mavjud. Xususan, birgina M.Mirzaevning "Intizor etma", "Orzu dil", "Dil kuylasin", "Ko'ngil taronasi", "Dilrabo", "Yangi tanovor", "Ey gul", "Go'zal Vatanim", "Shodlik" kabi kuylarini boshqa cholg'ularda, ya'ni, chang, g'ijjak, nay, rubob prima, dutor bas kabi cholg'ularda bemalol chalish mumkin.

Bundan tashqari bastakorlar R.Tursunovning "Shahlo", "Arzi dil", M.Norqulovning "Norgul", M.Tolmasovning "Lola", S.Yo'ldoshevning "Orom", kabi asarlarini ham yuqoridagi ro'yxatga kiritish mumkin.

Fikrimizni davom ettirib bastakorlar F.Sodiqov, K.Jabborov, S.Kalonov, S.Jalil, F.Alimov, G'.Toshmatov, B.Aliev kabi ko'plab mualliflarning musiqa maktabi darajasiga mos asarlarini barcha cholg'ularda chalib ko'rishdan cho'chimaslik kerak. Albatta, buning uchun o'qituvchi o'zi avvalo bu asarlarni

o‘zlashtirgan, to‘liq o‘rgangan bo‘lishi zarur. Bu esa o‘qituvchidan mehnat talab etadi. Ayni shu jihatning yo‘qligi ta’lim sifatini past bo‘lib qolishiga yoki soha rivojiga to‘siq bo‘layotgan omillardan deb aytsak to‘g‘ri bo‘lar.

8) maktab doirasidagi (boshqa bo‘limlar) sinf konsertlariga birga borish, ularni birgalikda tahlil qilish;

Ko‘pincha BMSMlarda bo‘limlar o‘qituvchilari orasida ijodiy hamkorlik yo‘qligiga guvoh bo‘linadi. Aksincha, maktab rahbariyati, o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari bu ishlarni yo‘lga qo‘yishsa, o‘zaro umumiy bo‘lgan ijodiy masalalar, uslubiy savollar ijobiy hal bo‘lardi, cholg‘ularda o‘qitishi uslubiyoti yanada boyib, takomillashib borishi ehtimoldan xoli emas. Konsertlarni tahlil qilish asarlar talqinini o‘rganishda, ularning badiiy xususiyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

9) rassomlik bo‘limi ko‘rgazmalariga birga qatnashish va ularni muhokama qilish;

Bunday ko‘rgazmalarga qatnashish o‘quvchilar bilimlari va dunyoqarashini kengayishiga, yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishga, ularning estetik didi shakllanishiga xizmat qiladi. Bunday ko‘rgazma va konsertlarga muntazam qatnashadigan o‘quvchida boshqalardan farq qiladigan jihatlar shakllanadi, ularda badiiy san’atga, hayotga bo‘lgan ijobiy munosabat shakllanadi. Badiiy asarlar g‘oyasini anglash, ularning mazmunini tushunish, ulardan ta’sirlanish orqali yosh avlodning hissiyotlari takomillashib, ma’naviyati boyib boradi. Unda yot g‘oyalardan himoyalanish immuniteti shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, BMSM o‘qituvchilariga yosh avlodni ma’naviy jihatdan komil inson etib tarbiyalashda muhim va o‘ta ma’suliyatli vazifa yuklangan. Demakki, bugungi shiddatli davrda bu mutaxassislar o‘z ishlariga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lish bilan birga, doimo kreativ, ya’ni, ijodiy yondashib ta’lim-tarbiyaning zamonga mos yangi noan’anaviy usullarini topib amalda qo‘llash orqaligina ko‘zlangan maqsadga erishishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.Nazarov. “Musiqada uzluksiz ta’lim tizimi” (xalq cholg‘ularida talqin masalasi) maqola “Uzluksiz ta’lim” jurnali, T.,2015, 3-bet

2. N.Isaqulova, Z.Bohovuddinova, S.Mahmudova. “O‘quv jarayonida ta’lim texnologiyalaridan foydalanish uslubiyati” “Fan” nashriyoti, T.,2013,3-bet

3. N.Sayidahmedov. “Yangi pedagogik texnologiya mohiyati” “Xalq ta’limi”, 1999 №1, 98-bet

4. Б.Л. Фарберман. «Прогрессивные педагогические технологии». — Ташкент, 2012. — 3 стр.